

## **OMMAVIY OFERTA**

*Bank Mobil ilovasi orqali SWIFT tizimidan foydalangan holda xorijiy valyutada chiquvchi  
xalqaro pul o'tkazmasini amalga oshirish xizmatini ko'rsatish to'g'risida*

## **MUNDARIJA:**

|                                                                                       |          |
|---------------------------------------------------------------------------------------|----------|
| <b>1. Umumiy qoidalar</b>                                                             | <b>3</b> |
| <b>2. Atamalar</b>                                                                    | <b>3</b> |
| <b>3. Oferta predmeti</b>                                                             | <b>3</b> |
| <b>4. Ofertani aksept qilish</b>                                                      | <b>3</b> |
| <b>5. Mijozning roziliklari va topshiriqlari</b>                                      | <b>4</b> |
| <b>6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari</b>                                        | <b>4</b> |
| <b>7. Arizaning tarkibi</b>                                                           | <b>5</b> |
| <b>8. Muddatlar va holatlar</b>                                                       | <b>6</b> |
| <b>9. Komissiya</b>                                                                   | <b>6</b> |
| <b>10. Mablag'larni qaytarish</b>                                                     | <b>6</b> |
| <b>11. Arizani bajarishdan bosh tortish / bajarilishini to'xtatib turish asoslari</b> | <b>7</b> |
| <b>12. Javobgarlik</b>                                                                | <b>8</b> |
| <b>13. Fors-major</b>                                                                 | <b>8</b> |
| <b>14. Nizolarni hal etish</b>                                                        | <b>8</b> |
| <b>15. Boshqa shartlar</b>                                                            | <b>9</b> |

## 1. Umumiy qoidalar

Ushbu Bank Mobil ilovasi orqali SWIFT tizimidan foydalangan holda xorijiy valyutada chiquvchi xalqaro pul o'tkazmasini amalga oshirish xizmatini ko'rsatish to'g'risidagi ommaviy oferta (bundan buyon matnda — «Oferta») — Bankning Mijoz bilan chiquvchi SWIFT o'tkazmasi xizmatini ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish bo'yicha ommaviy taklifdir (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367, 369 va 360-moddalari). Xizmat Bank tomonidan identifikatsiyadan o'tkazilgan va Mobil ilova foydalanuvchisi bo'lgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxslar uchun mavjud. Ofertaning to'liq matni va Tariflar Mobil ilovada va Bank veb-saytida joylashtiriladi; o'zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 10 (o'n) kun oldin e'lon qilinadi va ushbu sanaga qadar qabul qilingan Arizalarga tatbiq etilmaydi.

Ushbu Oferta Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan amaldagi kompleks (masofaviy) bank xizmati ko'rsatish shartnomasi (bundan buyon matnda — «MBX shartnomasi») bilan birgalikda qo'llaniladi. Arizaning Tasdiqlash vositasi orqali tasdiqlanishi MBX shartnomasida belgilangan tartibda Mijozning o'z qo'li bilan qo'ygan imzosi analogi sifatida tan olinadi.

## 2. Atamalar

**Bank** — «IPOTEKA-BANK» ATIB.

**Ariza** — Mijoz tomonidan Mobil ilovada shakllantirilgan va tasdiqlangan, Bankka SWIFT o'tkazmasini amalga oshirish to'g'risidagi elektron topshiriq bo'lib, uni bajarish uchun yetarli asos hisoblanadi va qog'oz shaklidagi ariza taqdim etilishini talab qilmaydi.

**Tranzit hisobvarag'i** — SWIFT o'tkazmasi summasini jamg'arish uchun Bank tomonidan o'tkazma valyutasida ochiladigan hisobvaraqlar.

**O'tkazma kartasi** — o'tkazma summasi yechib olinadigan Visa/Mastercard kartasi.

**Komissiya kartasi** — Mijoz tomonidan komissiyani to'lash uchun 22616-joriy hisobvarag'ini to'ldirishda foydalaniladigan Uzcard/Humo kartasi.

**Joriy hisobvaraqlar (22616)** — komissiyani to'lash uchun mablag'larni saqlash maqsadida ilovadagi Mijoz yozuvi.

**«OUR» sharti** — o'tkazma bo'yicha barcha xarajatlarni Mijoz o'z zimmasiga oladi.

**Mobil ilova** — AppStore va PlayMarket do'konlarida «IPOTEKA MOBILE» nomi ostida mavjud bo'lgan, «IPOTEKA-BANK» ATIB tomonidan ishlab chiqilgan va taqdim etiladigan, jismoniy shaxs-mijozlarga bank xizmatlari, funksionali va/yoki ma'lumotlaridan foydalanish imkonini berish maqsadida mobil qurilmalarga o'rnatish va ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot.

## 3. Oferta predmeti

3.1 Ushbu Oferta doirasida Bank ushbu Oferta shartlariga va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq Mijozning ko'rsatilgan oluvchi foydasiga pul mablag'larini o'tkazish to'g'risidagi Arizasini qabul qiladi, qayta ishlaydi va bajaradi.

3.2 O'tkazma AQSH dollari (USD) yoki yevroda (EUR) «OUR» sharti asosida amalga oshiriladi.

## 4. Ofertani aksept qilish

4.1 Aksept quyidagilar deb tan olinadi: Arizaning majburiy maydonlarini to'ldirish → Oferta va Tariflar bilan tanishish → shartlarga rozilik belgisini qo'yish → Arizani Tasdiqlash vositasi

(OTP/PIN/biometriya) orqali tasdiqlash, bu Mijozning o'z qo'li bilan qo'ygan imzosiga tenglashtiriladi. Oferta Mijoz tomonidan aksept qilingan, shartnoma esa Mijoz Arizani Tasdiqlash vositasi orqali muvaffaqiyatli tasdiqlagan va Ariza Bankning axborot tizimida unga o'ziga xos raqam berilgan holda ro'yxatga olingan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

## **5. Mijozning roziliklari va topshiriqlari**

5.1 Aksept paytida Mijoz tomonidan quyidagi roziliklar va topshiriqlar beriladi:

- o'tkazma valyutasida Tranzit hisobvarag'ini ochishga (agar hisobvaraq allaqachon ochilgan bo'lsa, qayta so'ralmaydi);
- o'tkazma summasini O'tkazma kartasidan (Visa/Mastercard) 29801-tranzit hisobvarag'iga yechib olishga;
- komissiyani to'lash uchun to'ldirish zarurligi to'g'risidagi ariza shaklidagi xabarnoma asosida Mijoz tomonidan Uzcard/Humo kartasi orqali 22616-joriy hisobvarag'ini mustaqil ravishda to'ldirishga;
- Ariza tekshirilgandan so'ng komissiya summasini 22616-joriy hisobvaraqdan Bank foydasiga keyinchalik yechib olishga — yechib olish paytida alohida tasdiqlashsiz;
- komissiya miqdoriga («OUR» sharti, amaldagi Tariflar bo'yicha belgilangan summa) va uni qaytarish tartibiga: agar o'tkazma summasi Tranzit hisobvaraq — 29801 dan yechib olinmagan bo'lsa (o'tkazma yuborilmagan bo'lsa) — komissiya Mijozning joriy hisobvarag'iga qaytariladi; agar o'tkazma yuborilgan va keyinchalik rekvizitlardagi xato yoki boshqa sabab tufayli qaytarilgan bo'lsa — komissiya qaytarilmaydi;
- identifikatsiya paytida olingan va Mijoz tomonidan Arizada kiritilgan ma'lumotlardan foydalanishga;
- Bankka Arizada ko'rsatilgan rekvizitlar bo'yicha aniq o'tkazmani amalga oshirish haqida to'g'ridan-to'g'ri topshiriq;
- oluvchi rekvizitlarining to'liqligi va ishonchliligini tasdiqlash — ularning to'g'riligi uchun javobgarlik Mijozga yuklatiladi;
- to'lov maqsadining O'zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligiga muvofiqligini va o'tkaziladigan mablag'larning qonuniy manbadan ekanligini tasdiqlash;
- Mijoz ma'lumotlarining korrespondent banklarga, oluvchi bankiga va SWIFT operatoriga, jumladan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning yetarli darajasini ta'minlamaydigan davlatlarga transchegaraviy uzatilishiga;
- shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga va to'lov infratuzilmasi ishtirokchisi ma'lumotlarini o'tkazmani qayta ishlash va bajarish uchun zarur bo'lgan hajmda uzatishga;
- Ariza tasdiqlangandan so'ng uning qaytarib olinmasligini tasdiqlash — uni qaytarib olish faqat Bankka murojaat qilish orqali va SWIFT xabari yuborilgunga qadar mumkin;
- Arizani qayta ishlashning taxminiy muddati (7-bo'lim) bilan tanishganligini tasdiqlash — ushbu muddat oluvchiga mablag'larni kreditlash muddati hisoblanmaydi.

## **6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

6.1 Bank quyidagi huquqlarga ega:

- 6.1.1 Arizani tekshirish va bajarish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha hujjatlar va (yoki) ma'lumotlarni Mijozdan so'rash;
- 6.1.2 ushbu Ofertaning «Arizani bajarishdan bosh tortish / bajarilishini to'xtatib turish asoslari» bo'limida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha Arizani bajarishdan bosh tortish yoki uni bajarishni to'xtatib turish;
- 6.1.3 «Boshqa shartlar» bo'limida nazarda tutilgan tartibda Oferta va Tariflarga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish;
- 6.1.4 «Komissiya» bo'limida nazarda tutilgan tartibda korrespondent banklar va oluvchi banking komissiyalarini Mijozdan ushlab qolish;
- 6.1.5 ushbu Ofertaning 11-bo'limida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha Mijoz bilan huquqiy munosabatlarni bir tomonlama tartibda bekor qilish.

#### 6.2 Bank quyidagilarga majbur:

- 6.2.1 ushbu Oferta bilan nazarda tutilgan tartib va muddatlarda Mijozning Arizasini qabul qilish, tekshirish va bosh tortish uchun asoslar bo'lmagan taqdirda uni bajarish;
- 6.2.2 Bank tomonidan belgilangan tartib va vositalar orqali Mijozni Arizaning holati to'g'risida xabardor qilish;
- 6.2.3 ushbu Ofertada bevosita nazarda tutilgan uzatish holatlaridan tashqari, Mijozning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligi va himoyasini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ta'minlash;
- 6.2.4 «Mablag'larni qaytarish» bo'limida nazarda tutilgan hollarda va tartibda Mijozga mablag'larni qaytarish.

#### 6.3 Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

- 6.3.1 SWIFT xabari yuborilgunga qadar Arizani qaytarib olish uchun Bankka murojaat qilish;
- 6.3.2 «Mablag'larni qaytarish» bo'limida nazarda tutilgan hollarda mablag'larni qaytarib olish.

#### 6.4 Mijoz quyidagilarga majbur:

- 6.4.1 o'tkazmani amalga oshirish va komissiyani to'lash uchun O'tkazma kartasida va Joriy hisobvaraqda yetarli mablag' bo'lishini ta'minlash;
- 6.4.2 oluvchi va o'tkazmaning to'liq, ishonchli va bir-biriga zid bo'lmagan rekvizitlarini ko'rsatish hamda ularning to'g'riligi uchun javobgar bo'lish;
- 6.4.3 amaldagi Tariflarga muvofiq Bank komissiyasini to'lash, shuningdek ushbu Oferta bilan nazarda tutilgan hollarda Bank tomonidan ushlab qolingani korrespondent banklar va oluvchi banking komissiyalarini Bankka qoplash;
- 6.4.4 Bank so'rovi bo'yicha Arizani tekshirish va bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish;
- 6.4.5 operatsiyaning O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiqligini va o'tkaziladigan mablag'larning qonuniy manbadan ekanligini ta'minlash.

### 7. Arizaning tarkibi

7.1 Ariza o'tkazmani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak: oluvchi turi (jismoniy/yuridik shaxs), oluvchi mamlakati, o'tkazma valyutasi va summasi, «OUR» sharti, oluvchining F.I.Sh./nomi va manzili, hisobvaraqa raqami/IBAN, oluvchi bankining SWIFT/BIC kodi, korrespondent bankning SWIFT/BIC kodi (bank nomlari — Mijoz xohishiga ko'ra), to'lov maqsadi, O'tkazma kartasi, Komissiya kartasi. Yuridik shaxs foydasiga o'tkazma uchun tasdiqlovchi hujjatlar (invoys, shartnoma) ilovadan tashqarida taqdim etiladi — Mijoz ularni Bank tomonidan nazarda tutilgan himoyalangan hujjat taqdim etish kanali orqali yuboradi.

7.2 Agar mos keluvchi rekvizitlar (Mijoz, valyuta, summa, oluvchi, to'lov maqsadi) bo'yicha «Ko'rib chiqilmoqda» yoki «Ishlov berilmoqda» holatidagi ariza allaqachon mavjud bo'lsa — yangi ariza ro'yxatga olinmaydi, Mijozga tegishli xabar ko'rsatiladi.

## 8. Muddatlar va holatlar

### 8.1

| Holat              | Ma'nosi                                                                                                                                       |
|--------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ko'rib chiqilmoqda | Ariza ro'yxatga olingan, ishlov berilishini kutmoqda                                                                                          |
| Ishlov berilmoqda  | Bank xodimi tomonidan ishlov berish uchun qabul qilingan                                                                                      |
| Bajarildi          | SWIFT xabari yuborilgan, Mijozga avtomatik ravishda SWIFT tasdiqnomasi taqdim etiladi                                                         |
| Rad etildi         | Bajarishdan bosh tortilgan; qonunchilikka ko'ra oshkor qilinishi taqiqlangan hollar bundan mustasno, bosh tortish sababi Mijozga ko'rsatiladi |

8.2 Bank tomonidan Arizaga ishlov berishning taxminiy muddati — ma'lumotlarning to'liq to'plami va mablag'larning yetarliligi mavjud bo'lganda 2 (ikki) ish kunigacha. Bu Arizaga ishlov berish va SWIFT xabarini yuborish muddati bo'lib, oluvchiga mablag'larni kreditlash muddati emas — bu muddat korrespondent banklar va oluvchi banki tomonidan belgilanadi hamda Bank nazorati doirasidan tashqarida.

## 9. Komissiya

9.1 «OUR» sharti bo'yicha SWIFT o'tkazmasi uchun komissiya Bankning amaldagi chakana Tariflariga muvofiq belgilangan summani tashkil qiladi. VIP-mijozlar va ish haqi loyihalari ishtirokchilari uchun tegishli mijozlar toifasiga xizmat ko'rsatish shartlariga muvofiq individual tariflar qo'llanilishi mumkin. Korrespondent banklar va oluvchi banki o'z komissiyalarini ushlab qolish huquqiga ega; zarur bo'lganda Bank ularni yuzaga kelgan yoki tegishli to'lov talabi olingan sanadan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Mijozdan qoplashni talab qilish huquqiga ega. Komissiyani to'lash uchun Joriy hisobvaraqda mablag' yetarli bo'lmasa, Ariza bajarilishi mumkin emas — Mijoz bu haqda xabardor qilinadi.

## 10. Mablag'larni qaytarish

10.1 Qaytarish tartibi o'tkazma summasi Tranzit hisobvaraqdan haqiqatda yechib olinganligi va korrespondent bankka yuborilganligiga (ya'ni o'tkazma yuborilgan yoki yuborilmaganligiga) bog'liq:

- Ariza o'tkazma yuborilgunga qadar rad etilgan yoki bekor qilingan bo'lsa (summa Tranzit hisobvaraqdan yechib olinmagan bo'lsa): o'tkazma summasi Mijozga O'tkazma kartasiga qaytariladi; komissiya summasi Mijozning joriy hisobvarag'ida qoladi.
- O'tkazma yuborilgan va korrespondent bank yoki oluvchi banki tomonidan qaytarilgan bo'lsa: o'tkazma summasi o'tkazmani yuborish va qaytarishda korrespondent banklar va oluvchi banki

tomonidan ushlab qolingani haqiqiy komissiyalar chegirilgan holda Mijozga O'tkazma kartasiga kreditlanadi. Bank komissiyasi qaytarilmaydi.

- Agar o'tkazmaning qaytarilishi Mijoz tomonidan ko'rsatilgan noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan rekvizitlar oqibatida yuz bergan bo'lsa, o'tkazmani yuborish va qaytarishda korrespondent banklar va oluvchi banki tomonidan ushlab qolingani barcha xarajatlar va komissiyalar Mijoz zimmasiga yuklatiladi va qaytariladigan o'tkazma summasidan ushlab qolinadi. Bank bunday holatda o'tkazmaning qaytarilishiga kafolat bermaydi va xorijiy bankning uni qaytarishdan bosh tortishi uchun javobgar bo'lmaydi.

## **11. Arizani bajarishdan bosh tortish / bajarilishini to'xtatib turish asoslari**

11.1 Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, ushbu Oferta va Bankning amaldagi qoidalarida nazarda tutilgan hollarda, jumladan quyidagi asoslardan bir yoki bir nechitasi mavjud bo'lganda, Arizani bajarishdan bosh tortish yoki uni bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega:

- Mijoz tomonidan ishonchsiz, to'liq bo'lmagan yoki bir-biriga zid ma'lumotlar va (yoki) rekvizitlar taqdim etilishi;
- Bank tomonidan Arizani tekshirish va bajarish uchun so'ralgan hujjatlar va (yoki) ma'lumotlarning Mijoz tomonidan taqdim etilmasligi;
- o'tkazmani amalga oshirish va (yoki) Bank komissiyasini to'lash uchun mablag'larning yetarli emasligi;
- operatsiyaning O'zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligi talablariga muvofiq kelmasligi;
- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan operatsiyani amalga oshirishdan bosh tortish yoki uni to'xtatib turish uchun asoslarning mavjudligi;
- tegishli operatsiyani amalga oshirishda Bank uchun majburiy bo'lgan sanksiya, eksport nazorati yoki boshqa cheklovchi choralarining qo'llanilishi bilan bog'liq holda Arizani bajarishga to'sqinlik qiluvchi holatlarning aniqlanishi;
- oluvchi, oluvchi banki yoki korrespondent bankning tegishli sanksiya ro'yxatlarida mavjudligi yoki o'tkazmani bajarish imkonsiz yoxud cheklangan bo'lishiga sabab bo'ladigan boshqa holatlarning mavjudligi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki Bank tomonidan belgilangan o'tkazmalar summasi va (yoki) soni bo'yicha limitlarning oshib ketishi;
- Mijozning hisobvaraqlari va (yoki) kartalari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishga cheklovlar yoki taqiqlarning mavjudligi;
- tegishli to'lov infratuzilmasi orqali bajarish imkonsizligini o'z ichiga olgan holda, Arizani bajarishga to'sqinlik qiluvchi texnik, operatsion yoki boshqa holatlarning aniqlanishi.

11.2 Bank Mijozni Arizaning holati to'g'risida xabardor qiladi va bajarishdan bosh tortilgan yoki operatsiya to'xtatib turilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda Mijozga bosh tortish yoki to'xtatib turish sabablarini oshkor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

11.3 Mijoz BMT, YEI, AQSH OFAC yoki Buyuk Britaniyaning sanksiya ro'yxatlariga kiritilgan taqdirda yoki Mijoz tomonidan «Tijorat banklari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmi moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidolari» (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyuta jinoyatlariga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining qarori, 2017 yil 23.05 da ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 2886) buzilgan taqdirda, Bank Mijoz bilan huquqiy munosabatlarni bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega.

## **12. Javobgarlik**

12.1 Tomonlar ushbu Oferta doirasidagi o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun amaldagi qonunchilikka va Bank hamda Mijoz o'rtasida tuzilgan kelishuvlarga muvofiq javobgar bo'ladilar.

12.2 Mijoz ko'rsatilgan rekvizitlarning ishonchliligi va operatsiyaning valyuta qonunchiligiga muvofiqligi uchun to'liq javobgar bo'ladi. Bank korrespondent banklar, oluvchi banki, SWIFT operatorining harakatlari uchun, xorijiy banklarning sanksiya nazorati choralari sababli o'tkazmaning kechikishi yoki bloklanishi uchun, shuningdek Mijoz tomonidan noto'g'ri rekvizitlar ko'rsatilishi oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi. Bankning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

12.3 Mijoz o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yuzaga kelgan zararlar va boshqa salbiy oqibatlar uchun, jumladan shaxsiy ma'lumotlarni himoyalangan aloqa kanallari yoxud zararli dasturlar va ilovalar ta'siriga uchragan qurilmalar orqali kiritish oqibatlari uchun mustaqil ravishda javobgar bo'ladi.

12.4 Agar ushbu Shartnoma shartlarining lozim darajada bajarilmasligi Mijoz tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi, Bankning oqilona nazorati doirasidan tashqaridagi holatlar, uchinchi shaxslarning harakatlari yoki harakatsizligi, davlat yoki sud organlarining taqiq yoxud cheklovlari, shuningdek elektr ta'minoti, internet aloqasi uzilishi va shunga o'xshash boshqa holatlar sababli yuzaga kelgan bo'lsa, Bank bunga javobgar bo'lmaydi. Shuningdek, Bank Mijozning ushbu Oferta bilan tanishmaganligi yoki o'z vaqtida tanishmaganligi oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi. Bank o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yuzaga kelgan xarajatlar, zararlar va boshqa oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

12.5 Bank ushbu Ofertani bajarish munosabati bilan yuzaga kelgan, boy berilgan foyda, obro'ga yetkazilgan zarar va boshqa bilvosita zararlarini o'z ichiga olgan holda, Mijoz yoki uchinchi shaxslar oldida har qanday zarar va yo'qotishlar uchun javobgar bo'lmaydi.

## **13. Fors-major**

13.1 Agar majburiyatlarning bajarilmasligi Bankning yoki uning korrespondent banklarining SWIFT tizimidan uzilib qolishi, xalqaro hisob-kitoblarga cheklovlar joriy etilishi, davlat organlarining harakatlari va Tomonlarning oqilona nazorati doirasidan tashqaridagi boshqa holatlarni o'z ichiga olgan holda mudofaa kuchi holatlari bilan bog'liq bo'lsa, Tomonlar javobgarlikdan ozod etiladi.

## **14. Nizolarni hal etish**

14.1 Ushbu Ofertadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog'liq barcha nizolar, kelishmovchiliklar yoki talablar tinch muzokaralar yo'li bilan hal etiladi; kelishuvga erishilmagan taqdirda — da'vo tartibida

(ko'rib chiqish muddati O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilanadi). Agar yuzaga kelgan nizo da'vo tartibida hal etilmasa, u O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda Bank ro'yxatdan o'tgan joy bo'yicha tegishli sudda ko'rib chiqilishi lozim.

## **15. Boshqa shartlar**

15.1 Oferta Bank tomonidan bekor qilinguniga qadar muddatsiz amal qiladi. Bank istalgan vaqtda Bankning <https://www.ipotekabank.uz> rasmiy veb-saytida va (yoki) Mobil ilovada tegishli xabarnomani joylashtirish yo'li bilan Ofertani bekor qilish huquqiga ega. Ofertani bekor qilish, agar tegishli hujjatda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, bunday bekor qilishga qadar tuzilgan shartnomalarga ta'sir qilmaydi.

15.2 Ofertada bevosita nazarda tutilmagan barcha masalalarda Tomonlar Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va ishbilarmonlik muomalasi odatlariga amal qiladilar.

15.3 Bank ushbu Ofertaga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega bo'lib, bu haqda Mijozni rasmiy veb-saytda va (yoki) axborot push-xabarnomalari orqali va (yoki) Ilovalar interfeysida va (yoki) SMS-xabarnoma orqali tegishli o'zgartirishlarni e'lon qilish yo'li bilan xabardor qiladi.

15.4 Ushbu Ofertani aksept qilish orqali Mijoz Shartnomaning barcha shartlariga so'zsiz roziligini tasdiqlaydi va uni bajarishga majburiyat oladi.

## **BANKNING MANZILI VA REKVIZITLARI**

### **Aksiyadorlik-tijorat ipoteka banki «Ipoteka-bank»**

Manzil (joylashgan joyi): O'zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahri, Shahrizabz ko'chasi, 30-uy.

STIR: 202858483

MFO: 00937

Litsenziya: 2021-yil 25-dekabrda №74

Ma'lumot uchun telefonlar (Bank Kontakt-Markazi): (+78) 150-11-22

Bankning rasmiy veb-sayti: [www.ipotekabank.uz](http://www.ipotekabank.uz)

E-mail: [info@ipotekabank.uz](mailto:info@ipotekabank.uz)